

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI TAMOIYILLARI.

Bakirova Dinora Xolmurod qizi Termiz
davlat pedagogika instituti Pedagogika yo'nalishi
I kurs magistranti. Telefon: 91-220-88-48.

Boboyeva Sitora Ro'zimaxmatovna
Termiz davlat pedagogika instituti PhD.

Annotatsiya: Maqolada 2022-2026 yillar davomida amalga oshiriladigan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi doirasidagi islohotlar xususan qonun ustuvorligi va konstitutsiyaviy qonuniylikni ta'minlash hamda davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o'rnatish, fuqarolar va tadbirkorlik sub'yektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirishga qaratilgan islohotlar mazmun-mohiyati to'g'risida ba'zi mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: mulk, huquq, daxlsizlik, qonun, konstitutsiya, qonuniylik, inson qadri, shaxs, fuqaro, tadbirkorlik, odil sudlov.

ПРИНЦИПЫ СПРАВЕДЛИВОСТИ И ВЕРХОВЕНСТВА ПРАВА В СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.

Аннотация: В статье представлены некоторые соображения относительно содержания и сущности реформ в рамках Новой стратегии развития Узбекистана, которые будут реализованы в 2022-2026 годах, в частности, направленных на обеспечение верховенства права и конституционной легитимности, а также на установление эффективного судебного контроля над деятельностью государственных органов и должностных лиц и повышение уровня доступа к правосудию для граждан и субъектов предпринимательской деятельности.

Ключевые слова: собственность, право, неприкосновенность, закон, конституция, законность, человеческое достоинство, личность, гражданин, предпринимательство, справедливость.

PRINCIPLES OF JUSTICE AND THE RULE OF LAW IN THE NEW UZBEKISTAN DEVELOPMENT STRATEGY.

Abstract: The article presents some considerations on the content and essence of the reforms within the framework of the New Uzbekistan Development Strategy, which will be implemented in 2022-2026, in particular, aimed at ensuring the rule of law and constitutional legitimacy, as well as establishing effective judicial control over the activities of state bodies and officials, and increasing the level of access to justice for citizens and business entities.

Keywords: property, right, inviolability, law, constitution, legality, human dignity, individual, citizen, entrepreneurship, justice.

Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi mamlakatimizda 2022-2026 yillar davomida amalga oshiriladigan islohotlar uchun dasturilamal bo'ldi. "Inson qadri uchun" tamoyiliga asoslangan holda aholi farovonligini ta'minlash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish, mamlakat taraqqiyotini jadallashtirishda asosiy rol o'ynamoqda. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Adolat va qonun ustuvorligi – xalqchil davlat qurish, inson qadr-qimmatini ta'minlashning eng asosiy va zarur shartidir". Zero, adolat davlatchilikning mustahkam poydevoridir[1].

Qonun ustuvorligi – barcha davlat hokimiyati organlari faoliyatida konstitutsiya, qonunlar oliy yuridik kuchga ega bo'lib, ularning hokimiyat chiqaradigan boshqa hamma me'yoriy hujjatlar va yo'riqnomalardan ustun turadi. Qonun ustuvorligi jamiyatda demokratiya va qonunchilik ta'minlanishiga xizmat qiluvchi tamoyildir. Bu tamoyil O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15 moddasida mustahkamlangan: "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar".

Mamlakatda hokimiyatlar bo'linishi prinsipining joriy etilganligi O'zbekistonda konstitutsiya va qonunlar ustunligini ta'minlashning muhim kafolatidir. Unga ko'ra, qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyati bo'g'inlari o'zlarining Konstitutsiyada, qonunda belgilangan vakolatlari doirasida faoliyat yuritadilar. Ular o'rtasidagi munosabatlarni uyg'unlashtirishda eng oliy hakam qonundir.

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, mamlakat Prezidenti fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishining kafilidir (93-modda). Prezidentning bu boradagi faoliyati muhim siyosiy yuridik ahamiyatga ega. U o'z farmonlari, qarorlari bilan konstitutsiyaviy tamoyillarning, qonunlarda mustahkamlangan qoidalarning hayotga to'la joriy etilishi uchun yo'l ochadi, tegishli huquqiy mexanizmlarni yaratadi.

Qonunlar ijrosi, huquqni qo'llash amaliyotining samaradorligi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tomonidan tayyorlanadigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining sifati bilan bevosita bog'liq. Bunda har bir tashkilotning yuridik xizmati zimmasiga katta mas'uliyat yuklanadi. Shu bois ham yurtimizda yuridik xizmat sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda[2]. Shu yo'nalishdagi normativ-huquqiy baza to'liq yangilanib, yuridik xizmat maqomini belgilashga qaratilgan hukumat qarorlari qabul qilingan. Adliya organlari tomonidan mazkur sohaga uslubiy yordam ko'rsatish, uni rivojlantirish maqsadida o'nlab idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi bilan birga, amaliy tadbirlar muntazam tashkil etilmoqda. Bundan tashqari, Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazida yuridik xizmat xodimlari malakasi oshirib borilmoqda. Yuridik markazlar faoliyati zamonaviy IT texnologiyalari bilan to'liq ta'minlanishi hamda davlat organlari va tashkilotlari bilan o'zaro hujjat almashinuvi yagona elektron tizim orqali amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

O'zbekistonning inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi xalqaro reytinglar va indekslar bo'yicha dunyodagi 50 ta yetakchi mamlakatlar qatoriga kirishini ta'minlash maqsadi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasida mustahkamlandi. 2023 yil 30 aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi

referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga inson huquqlariga oid 10 ta eng muhim quyidagi yangiliklar kiritildi:

1. Insonning huquq va erkinliklari har kimga tug'ilganidan boshlab tegishli bo'ladi.
2. Insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir.
3. Insonning huquq va erkinliklari bevosita amal qiladi hamda qonunlarning, davlat organlari va ularning mansabdor shaxslari faoliyatining mohiyati va mazmunini belgilaydi.
4. Hech kimga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas.
5. Insonga nisbatan qo'llaniladigan huquqiy ta'sir choralari mutanosiblik prinsipiga asoslanishi va qonunlarda nazarda tutilgan maqsadlarga erishish uchun yetarli bo'lishi kerak.
6. Har kim o'z shaxsiga doir ma'lumotlarning himoya qilinishi huquqiga, shuningdek noto'g'ri ma'lumotlarning tuzatilishini, o'zi to'g'risida qonunga xilof yo'l bilan to'plangan yoki huquqiy asoslarga ega bo'lmay qolgan ma'lumotlarning yo'q qilinishini talab qilish huquqiga ega.
7. Har kim mamlakat bo'ylab erkin harakatlanish, turar va yashash joyini tanlash huquqiga ega.
8. Har kim uy-joy daxlsizligi huquqiga ega.
9. Har kim o'z huquq va erkinliklarini qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqli.
10. Shaxsning sudlanganligi va bundan kelib chiqadigan huquqiy oqibatlar uning qarindoshlari huquqlarini cheklash uchun asos bo'lishi mumkin emas[3].

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, har qanday huquqiy davlatda Konstitutsiya va qonunlar asosida inson huquqlari, erkinliklari va burchlarini himoya qilinishini kafolatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ham fuqarolarning haq-huquqlari davlat tomonidan to'la kafolatlangan. Ya'ni,

O‘zbekistonning demokratik islohotlari mohiyatida avvalo inson huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish eng muhim vazifalardan biri sanaladi. “Qonun - ustuvor, jazo - muqarrar” tamoyilini bosh mezonga aylantirish orqali qonuniylikni qat’iy ta’minlovchi, ochiq va adolatli prokuratura faoliyatining mustahkam huquqiy asoslarini yaratish, tezkor-qidiruv va tergov faoliyati ustidan nazoratni kuchaytirish, fuqarolarning qadr-qimmati va erkinligini samarali himoya qilishning ta’sirchan mexanizmlarini joriy etish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarda jinoyatlar haqida xabarlarini hisobga olish tizimini tubdan isloh qilish, jinoyatlarni yashirish holatlarining oldini olishda zamonaviy usullardan foydalanish kabi vazifalar belgilangan. Yana bir muhim masala sifatida Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik sub’ektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirish borasida ham aniq vazifalar belgilandi.

Jamiyatda adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashda esa sud hokimiyati hal qiluvchi o‘rinni egallaydi. Umuman, Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan maqsad va vazifalar mamlakatimizda adolat va qonun ustuvorligiga asoslangan demokratik huquqiy davlat barpo etish, fuqarolarimizning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati yuksaltirish, tadbirkorlik faoliyati uchun qo‘shimcha huquqiy kafolatlarni belgilashga va eng asosiysi, yurtimizda adolat va qonun ustuvorligini ta’minlash orqali “Inson qadri uchun” tamoyilini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi[4].

Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish hamda fuqaro va tadbirkorlik sub’yektlariniig odil sudlovga erishish darajasini oshirish Davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan samarali sud nazoratini o‘rnatish, fuqaro va tadbirkorlik subyektlarining odil sudlovga erishish darajasini oshirishni nazarda tutadi. Bunda, asosiy vazifalar sifatida ma’muriy sudlarda mansabdor shaxslarning qarorlari ustidan berilgan shikoyatlarni ko‘rib chiqish tizimini takomillashtirish orqali sud nazoratini qo‘llash sohasini kengaytirish, “Xabeas korpus” institutini yanada rivojlantirish orqali tergov ustidan sud nazoratini kuchaytirish, sud protsessida tomonlarning haqiqiy tenglik va tortishuv

tamoyillarini ro'yobga chiqarish, sud tizimini bosqichma-bosqich raqamlashtirish, odil sudlovga erishish darajasini oshirish kabilar belgilangan.

So'nggi yillarda sud-huquq sohasida amalga oshirilgan islohotlarni shartli ravishda qo'yidagi yo'nalishlarini ko'rsatish mumkin:

1. Inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish va "Xabeas korpus" institutini rivojlantirish;
2. Sud-huquq tizimida amalga oshirilayotgan tashkiliy islohotlar;
3. Sud-huquq tizimida faoliyat olib borayotgan xodimlar faoliyatini ijtimoiy muhofaza qilish.

Sud hokimiyatining mustaqilligi va erkinligini mustahkamlashga qaratilgan aniq, qonuniy chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 21 oktyabrda "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4850-sonli Farmoni qabul qilindi. Unda davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish bo'yicha sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlarining muhim vazifalari belgilandi[6]. Farmon bilan 2017 yilning 1 aprelidan jinoyat, jinoyat-prosessual, fuqarolik processual va boshqa qonun hujjatlariga odil sudlov samaradorligini oshirishga qaratilgan muhim o'zgartirishlar kiritildi.

Sudyalik lavozimiga birinchi marotaba besh yil muddatga va keyin o'n yil muddatga, shundan so'ng muddatsiz davrga tayinlash tizimi joriy etildi. Bu sudyalarning yoshi, malakasi, kasb mahoratini inobatga olgan holda uzoqroq muddatga faoliyat ko'rsatishini kafolatlaydi. Sudlanganlik holatini tugatish va sudlanganlikni olib tashlash muddatlari va asoslari qayta ko'rib chiqildi. Ijtimoiy xavfi katta bo'lmagan ayrim jinoyat tarkiblari jinoyat toifasidan chiqarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4966-sonli 2017 yil 21 fevralda "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida sudyalar hamjamiyatining organi hisoblanadigan va O'zbekiston Respublikasida sud hokimiyati

mustaqilligining konstitutsiyaviy prinsipiga rioya etilishini ta'minlashga ko'maklashadigan institutlar tashkil etildi. Yagona sud amaliyotini ta'minlash maqsadida Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi fuqarolik, jinoiy, ma'muriy va iqtisodiy sud ish yurituvchi sohasida sud hokimiyatining yagona oliy organi – O'zbekiston Respublikasi Oliy sudiga birlashtirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 yanvardagi "Sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalarda va sudlar apparatida xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Sudyalarda oliy kengashi huzurida Sudyalarda oliy maktabi shakllantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 iyuldagi "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6034-sonli Farmoniga asosan sud tizimida raqamlashtirishni yanada kengaytirilish nazarda tutildi[8].

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qonun ustuvorligi tamoyili jamiyat hayotining barcha jabhalarida qonunlarning qat'iy hukmronligini bildirib, yuqorida ta'kidlanganidek, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va fuqarolarning konstitutsiya va qonunlarga so'zsiz itoat etishida, ijtimoiy munosabatlarning jamiyat, fuqaro va davlat manfaatlariga mos tarzda tartibga solinganini anglatib, mamlakat miqyosida barqarorlik, batartiblik va qonuniy tartibot muhiti o'rnatilganida; uchinchidan, huquq buzilishi hollarining oldini olish, shuningdek, huquqiy munosabat ishtirokchilari qonunni buzgan taqdirda qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun qonunlarning huquqiy asos vazifasini bajarishida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T., "O'zbekiston". 2017. 23 bet
2. Mirziyoyev. Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., "O'zbekiston". 2022. 416 bet

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlari ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. - Toshkent: O'zbekiston. 2017
4. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
5. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор. М.А.Рахимов. - Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.
6. O'zbekistonning eng yangi tarixi. R.H.Murtazayeva, A.A.Ermetov, A.A.Odilov. - Toshkent, 2023.
7. O'zbekistonning eng yangi tarixi xrestomatiyasi. A.Sabirov, S.Pulatova. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. 328 b.
8. Noveyshaya istoriya Sentralnoy Azii: Problemi teorii i metodologii: sb. statey / otv. red. sost. A.K.Alikberov, M.A.Raximov / Rossiyskaya akad. nauk. In-t vostokovedeniya. In-t istorii AN RUz. — M.: Institut vostokovedeniya RAN, 2018. - 304 s.
9. Saydaliyeva N, Usarova F. Strategiya deystviy - osnova novogo Uzbekistana. Tashkent: Nodirabegim, 2020. - 302 s.